

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN
YOG'OCH O'YMAKORLIGI NAMUNALARI RESTAVRATSIYASI VA
KONSERVATSIYASI**

G'aniyeva Dilnoza Ikromovna

O'zbekiston davlat san'at muzeyi yetakchi mutaxassis

Xalilova Shaxnoza Ikrom qizi

Alfraganus Universiteti oliy ta'lif tashkiloti

Pedagogika va Psixologiya fakulteti,

Defektaligiya yo'nalishi talabasi

Qadim zamonlardan ota-bobolarimiz insoniyat vujudga keltirgan kashfiyot, ilm-fan cho'qqilarini egallab, o'z hunarlarini avloddan-avlodga o'tkazib kelmoqdalar. Yog'ochga naqsh o'yish va gul solish san'ati hamisha ardoqlanib kelingan. Hozirgi kunda yog'och o'ymakorligi me'morchilik bilan bir qatorda ro'zg'or buyumlariga bezak berishda keng qo'llanilmoqda. Amaliy san'at turlari tub aholining zakovati, orzu-istiklari, yorqin kelajakka bo'lgan intilishlari namunasi sifatida shakllandi va rivojlandi. Ularda asrlar davomida bobolarimiz to'plagan boy tajriba va ijodiy mehnat o'z aksini topgan.

Yog'och o'ymakorlik san'ati juda qadimdan shakllangan va hozirgi kunga qadar eng talabgir amaliy san'at yo'nalishi hisoblanadi. Amaliy san'atda yog'och o'ymakorligi, uning rivojlanish tarixi, maktablarini va uning mazmunini o'rghanishda katta imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan bir qatorda, uzoq o'tmishga va tarixga ega o'zbek xalqi madaniy yodgorliklaridan bo'lgan O'zbekiston muzeylarida saqlanib kelayotgan yog'och o'ymakorlik namunalarini restavratsiya qilish jarayonlari jadallahuvi dolzarbligini kutayotgan masalalardan biri ekanligini hisobga olgan holda, mavzuning ham dolzarbligini belgilab beradi.

Restavratsiya uslublarining koshinkorlik, koshinpazlik masalalariga bag'ishlangan, xalq ustalarining uzoq yillar davomida to'plagan tajribalari, ta'lmlari to'liq yoritilgan A.Haqqulovning "Tarixiy yodgorliklarni restavratsiya" va "Restavratsiya san'ati" asarlarida muallifning restavratsiya sohasida olib brogan ko'p yillik izlanishlari keng yoritilgan. Shuningdek, K.B.Akilovaning "Markaziy Osiyoning zamonaviy ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq tarixiy-madaniy merosni restavratsiya muammolari" maqolasida ham bugungi kunda merosni restavratsiya muammolari - bu ma'lum san'at va madaniyat asari hamda yodgorliklarini restavratsiya emas, balki bu eng avvalo muayyan millatning ma'naviy boyliklarini saqlab qolish bilan bog'liq asosli fikrlar aniq va lo'nda ifodalab berilgan. Shu bilan birga A. Xakimovning "O'zbekiston Davlat san'at muzeyidagi naqshu-nigorli buyumlar jamlanmasi" nomli maqolasida muzeyda saqlanayotgan turli yo'g'och buyumlariga ishlangan naqshlar, ularning uslublari, maktablari kabilarga to'xtalib o'tilgan.

Konservatsiya va restavratsiya ishlari bo'yicha bir necha olimlarning asarlari o'r ganib chiqildi. A.Haqqulov , V.Shestakov , S.Mahkamova , I.Rudneva , restavratsiya sferasi bo'yicha yangi texnologiyalar , A.Yolkina , T.Gromina , E.Kolmakova larning tadqiqot ishlari shular jumasidandir. Taniqli olim Ya.G'.G'ulomov tomonidan yozilgan asarda O'zbekistonning moddiy madaniyat yodgorliklarini asrash va muhofaza qilishda o'z ifodasini topgan .

Olimlar tomonidan Buxoro, O'rta Osiyo va O'rta Sharq madaniy yodgorliklari ashyolarini konservatsiya va restavratsiya qilish, deyarli alohida e'tibor bilan ko'rib chiqilgan lekin aynan mavzuga oid manba yo'qligi aniqlandi.

Har qanday san'at asarlari vaqt o'tishi bilan ta'mirtalab bo'lib qoladi. Garchi u har qancha mahorat va ustalik bilan ishlangan bo'lsa ham. Shular qatori yog'och o'ymakorlik namunalari ham bulardan holi emas. Eksponatlarning umrini uzaytirish, ularni kelajak avlodga bus-butun saqlash muzey sohasining murakkab muommolaridan hisoblanadi. Nafaqat ashyo va kolleksiyalarni ehtiyyotkorona saqlash ularni buning

uchun muzeylarda bir xil harorat va namlikni ushlab turish, yorug'lik vositalaridan ham to'g'ri foydalanish kerak bo'ladi.

O'zbekiston Davlat san'at muzeyida milliy madaniyatimizni aks ettiruvchi turli eksponatlar orasida amaliy san'atga oid osori-atiqalar saqlanib, tomoshabinlarga namoyish etib kelinmoqda.

Muzey eksponatining yarmidan ko'pi an'anaviy dekorativ-amaliy san'ati kolleksiyasini tashkil etadi. O'zbekiston qadimdan yo'g'och o'ymakorligi bilan mashhur. O'simliksimon va geometrik ornamentlardan qilingan naqsh to'plamlari me'moriy qismlar bilan birgalikda uy jihozlarini ham bezagan. Yo'g'och o'ymakorligi juda keng ko'lamda ishlab chiqarilgan – kata ustunlar va shift to'sinlaridan tortib, to uncha kata bo'lмаган uy jihozlarigacha – sandiqchalar, g'alladonlar, qalamdonlar, xontaxtalar, milliy cholg'u asboblari shular jumlasidandir. Ekspozitsiyada o'ymakorlikning taniqli ustalari – Sulaymon Xo'jayev, toshkentlik mohir usta Maqsud Qosimov, Qo'qonlik usta Qodirjon Xaydarov va boshqa ustalarining noyob asarlari namoyish qilinmoqda. Yog'ochdan o'yilgan suyak va sadaf ishlatilgan jimjimador naqshlar mashhur usta Usmon Zufarov yaratgan cholg'u asboblarini bezaydi. Muzey ekspozitsiyasida usta yaratgan doira, tanbur, g'ijjak, dutor va sunray taqdim etilgan. Bular asosan yog'ochdan yasalgan bo'lib, ularni bezatish uchun usta suyak va sadafdan foydalangan. Shuning uchun ham bu eksponatlar o'zining nozikligi bilan muzeyga tashrif buyurgan har bir tomoshabinning e'tiboridan chetta qolmaydi. Bular ichida Xiva ustalari tomonidan ishlangan o'ymakorlik ishlarida yog'ochning tabiiy go'zalligini saqlab qoladilar, aynan muzey ekspozitsiyasida xurmatga sazovor azaliy, nasliy yog'och o'ymakor usta Ota Polvonov asarlari kata mashxurlikka ega. Xiva ustunlari ham juda bejirim qilib yog'och o'ymakorligida ishlangan. Zamonaiviy marg'ilonlik maxobatli o'ymakorlik ustalari o'zgacha chuqur avalsimon bo'rtma o'ymakorlikni qo'llashadi.

O'ymakor ishining muvaffaqiyati, uning mohirona tanlangan xom ashvosiga bog'liq. Hattoki, yong'oq va chinor kabi tanlangan daraxt turlari ham diqqat e'tiborni

talab qiladi. Usta o‘ymakor daraxtning yoshini ajrata olishi, ya’ni yog‘ochlarni qanday sharoitda va qancha saqlash kerakligini bilishi lozim.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ekspozitsiyadan o‘rin olgan XIX asrga tegishli bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Toshkentning bir tabaqali va ikki tabaqali eshiklarni ko‘rishimiz mumkin. Bunda usta islimiy va girix naqshlaridan foydalangan holda eshiklarga bezak bergen. Bu o‘yma eshiklar xonadon kirish qismini bezatib turgan. Eshik maydonini bezak qanchalik zinch qoplanganligi, shuningdek, metal bezaklarning o‘lchami uy egasi mavqeyini belgilagan. Bundan tashqari bu yerda qiziqarli DONOQOSI deb nomlanuvchi eshik dastalari ham mavjud, o‘sha davrda qo‘ng‘iroqlar bo‘limganligi sababli, ular yordamida eshik taqillatishgan. Eshiklar qo‘ng‘iroqlari uch qismga bo‘lib o‘rnatilgan, tepadagi qo‘ng‘iroq erkaklar uchun, o‘rtadagi ayollar uchun, pastdagi qo‘ng‘iroq bolalar uchun o‘rnatilgan. Ular har xil metaldan ishlangan va turli xil ovoz chiqargan, shu orqali eshikni ayol yoki erkak kishi taqillatayotganini ajratish mumkin bo‘lgan. Bu uyga erkak kishi kelib eshikni taqillatsa, shunda uy bekasi paranjisini kiyib olishi uchun qilingan. Chunki u davrda ayollar nomahram erkaklarga yuzlarini ko‘rsatish mumkin bo‘limgan. Shuning uchun ham qo‘ng‘iroqlarning ovozlari har xil chiqgan. Tabiiyki, ko‘p yillardan beri muzeyda saqlanib kelinayotgan bu kabi yog‘och o‘ymakorligi namunalari muzeyning mohir restavratorlari tomonidan ta’mirlangan.

Restavratsiya-me’moriy yodgorliklar, ularning bezagi, tasviriy va amaliy san’at asarlarining o‘chgan, buzilgan qismini tiklab, asl holiga keltirish yoki asliga yaqinlashtirish kabi ishlarni amalgalashtirish oshiradi. San’at asarlari, ya’ni kartina, haykal va boshqa moddiy madaniyat yodgorliklari, tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan ob’ektlar doimiy nazoratga olingan, tavsifidan kelib chiqqan holda turli usullar orqali restavratsiya hamda konservatsiya ishlari olib boriladi. Biron-bir predmet restavratsiya qilinadigan bo’lsa, u ilmiy jihatdan puxta o’rganib chiqiladi, umumiy ahvoli tashhislanadi. Kartinalarning o‘chgan joylari, buzilgan va yo’qolgan qismidagi tasvirlar qayta chizilib, bo'yab asl holi tiklanadi, agar asar keyinchalik buzilgan,

noto'g'ri tuzilgan, yanglish bo'yalgan bo'lsa mikroximik analiz qilinib, rentgenografiya, ultrabinafsha nurlaridan foydalanib, bo'yoq qatlamlari o'rganiladi, rassom foydalangan bo'yoqning rang va tarkibi o'rganilib, shunday bo'yoq bilan qayta ishlanadi. Ilmiy restavratsiya va konservatsiya metodlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllandi.

Konservatsiya lotincha conservation- saqlash so'zidan olingan bo'lib- san'at asarlari, arxeologik materiallar, buyumlar, qo'lyozma, kitob, arxiv hujjatlari va boshqa predmetlar qiymatidagi buyumlarni uzoq turganda buzilmaydigan qilib saqlash tadbiridir.

Yog'och o'ymakorlik namunalari ta'mirtalab bo'lishiga asosiy sabab havoning namligi va yog'ingarchilik bo'ladi.

Yog'ochni quruq va to'yigan holda saqlashning eng yaxshi usullarini muhokama qilishda bir qator qiziqarli muammolarni keltirib chiqardi. Hasharotlar va hayvon organizmlari tomonidan turli yo'llar bilan buzilgan quruq yog'och ustida ko'p ishlar ko'p joylarda keng miqyosda amalga oshirildi.

Daraxt hasharotlar tomonidan shikastlanganda, savollar odatda daraxtni qanday mustahkamlash, hasharotlar hayotini ularning mavjudligining barcha bosqichlarida qanday yo'q qilish kerakligi bilan bog'liq. Ya'ni tuxumda, lichinkada, qo'g'irchoqda yoki hasharotning o'zida va nihoyat, har qanday zararkunandalardan keyingi zararni qanday oldini olish mumkin. Ko'pincha ular yog'ochga ishlov berishda yelim yoki jelatindan foydalanadilar, ular bilan yoriqlar to'ldiriladi. Ushbu material quritilganda yog'ochni mahkamlashga yordam beradi. Ammo nam atmosferada, suvning shunday ishlov berilgan yog'ochga yetib borishi mumkin bo'lganda, jelatin yumshoq bo'lib, shuningdek, mog'or o'sishini faollashtirib, uning yo'q qilinishiga olib kelishi mumkin. Yana bir usul tavsiya etiladi - bu issiq kerosin mumi, lekin u yog'ochni mustahkamlash uchun ko'p ham yordam bermaydi. Biroq, bu namlikka yoki hatto suvga chidamli bo'lish uchun ajoyib vositadir va bu vosita bilan davolangan har qanday yog'och tuxum

qo'yish uchun mos tuproqni ta'minlamaydi. Ko'rinishidan, istiqbolli vositalardan biri natriy silikat eritmasi (ya'ni, suyuq sodali shisha), sotuvda "P. 84" savdoda mavjud bo'lganidek, u yarim yoki chorak quvvatda ishlatilsa, quritilganida yog'och qattiq va mustahkam bo'ladi va hech qanday yoqimsiz o'sishni ko'rsatmaydi. Uning yuzasi hasharotlar tuxumlarining cho'kishi uchun noqulaydir va hatto bir nechta lichinkalar paydo bo'lgan bo'lsa ham, ular shu tarzda ishlov berilgan yog'ochga deyarli zarar etkazishi mumkin emas. Agar juda nam yog'och quruq muzey atmosferasiga kirsa, unda ko'p narsalarni hisobga olish kerak. Faraz qilaylik, qoziqli binolardan ustunlar shaklini o'zgartirmaydigan va qadimgi duradgorlar qo'llagan asboblar izlari saqlanib qoladigan tarzda saqlanishi kerak; bu holda, eng kichik quritish va shakli o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, yuqorida tavsiflangan natriy silikat eritmasi yaxshi natija berishdan uzoqdir. Yog'och u bilan to'liq to'yingan bo'lsa, u quruq va qattiq bo'ladi. Agar ob'ekt havoni yaxshi havo pompassi bilan evakuatsiya qilish mumkin bo'lgan mos shakldagi idishga joylashtirish uchun yetarlicha kichik bo'lsa, u holda yog'ochning o'zi shamollatilishi kerak, ayniqsa harorat biroz ko'tarilgan bo'lsa. Havo idishga o'tkazilganda, silikat eritmasi yog'ochning teshiklariga yaxshi o'tadi.

XULOSA

Milliy madaniy meros har bir xalqning avloddan-avlodga o'tuvchi muhim qadriyati bo'lib, uni asrab-avaylash kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Har qanday san'at asarlari vaqt o'tishi bilan ta'mirtalab bo'lib qoladi. Garchi u har qancha mahorat va ustalik bilan ishlangan bo'lsa ham. Shular qatori yog'och o'ymakorlik namunalari ham bulardan holi emas. Yog'och o'ymakorlik namunalari ta'mirtalab bo'lishiga asosiy sabab havoning namligi va yog'ingarchilik bo'ladi.

Yog'ochni quruq va to'yingan holda saqlashning eng yaxshi usullarini muhokama qilishda bir qator qiziqarli muammolarni keltirib chiqardi. Hasharotlar va hayvon

organizmlari tomonidan turli yo'llar bilan buzilgan quruq yog'och ustida ko'p ishlar ko'p joylarda keng miqyosda amalga oshirildi.

Yog'och hasharotlar tomonidan shikastlanganda, savollar odatda daraxtni qanday mustahkamlash, hasharotlar hayotini ularning mavjudligining barcha bosqichlarida qanday yo'q qilish kerakligi bilan bog'liq. Ya'ni tuxumda, lichinkada, qo'g'irchoqda yoki hasharotning o'zida va nihoyat, har qanday zararkunandalardan keyingi zararni qanday oldini olish mumkin. Yog'och o'ymakorligi maktablari shakllanishi tarixini tadqiq etilib – me'morchilikda yog'och o'ymakorligining tutgan o'rni, yog'och o'ymakorligi namunalarini restavratsiya qilish metodlari va yog'och o'ymakorligi namunalarini saqlash va namoyish etish jarayonlari o'rganilib ilmiy tadqiq etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR RO'YHATI

1. Abdullayev N. San'at tarixi. – Тошкент: "O'qituvchi", 2001.
2. Avedova N.A. Toshkent o'ymakorligi. – Т.: O'z. Dav. Badiiy adabiyot nashr. 1961.
3. Аведова Н.А. Ташкентская резьба по дереву в работах Максуда Касымова. – Т.: Гоститиздат. Уз.ССР. 1961.
4. Аведова Н.А. Ташкентская резьба по дереву в работах Максуда Касымова. – Т.: Гоститиздат. Уз.ССР. 1961.
5. Акилова К. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана : xx век/ Науч. ред. Т. М. Махмудов. - Т.: 2005.
6. Абросимова А.А., Камон Н.И. Митлянская Т.Б. Художественная резьба по дереву, кости и рогу: Практ. пособие - 3-е изд., перераб. – М.: Высшее школа, 1989.
7. Bulatov S.S. O'zbek xalk amaliy bezak san'ati. – Т.: "Mexnat", 1991. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lutati. – Т., Qomuslar bosh Taxr., 1992.
9. Bulatov S. Muxtorov A. Ganchkorlik san'ati: Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2006.

10. Булатов С.С. Амалий санъат. [Матн] – Т.: [с.н], 2011.
11. Ҳаққұлов А.А. Таъмир санъати. – Т.: Мәднэт, 1991.
12. Ҳаққұлов А.А. Тарихий ёдгорликларни таъмирлаш. – Т., Ўқитувчи, 1983.
13. Руднева И.В., Образцова М.В. Основы консервации и реставрации предметов искусства и культуры. – М.: 2008.
14. Скотт А. Очистка и реставрация музеиных экспонатов.
15. Шестаков В. Особенности реставрации культурных ценностей // Вопросы культурологии. – М., 2008.
16. Гуломов Я. Ўзбекистонда моддий-маданий ёдгорликларни сақлаш, ўрганиш йўллари. – Тошкент, 1934.